

5 sinf Matematika 2-BSB topshiriqlari va mezonlari

Bob	Mavzu	Baholanadigan ko'nikma	Namunaviy topshiriq	Ajratilgan ball	To'g'ri javob	Baholash mezonlari
II. Sonlar ustida to'rt amal	Qavsli ifodalarda amallarni bajarish tartibi	To'rt amalni o'z ichiga olgan qavs ishtirok etgan ifodalarda amallarni bajara oladi	Ifodalarning qiymatini toping. 1) $(780 - 140) \div 8 + (15 - 10) \times 3$ 2) $(900 - 300) \div 3 - (246 - 197) \times 4$	2 ball	1) 95; 2) 4.	Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball dan jami 2 ball .
	Matnli masalalar	Ko'p bosqichli matnli masalalarni yecha oladi	<ul style="list-style-type: none"> Bitta bo'sh quti va bir nechta apelsinning umumiy massasi 25 kg. Bitta bo'sh quti va bir nechta olmaning umumiy massasi esa 11 kg. Apelsinlarning massasi olmalarning massasidan 3 marta og'ir. Berilgan ma'lumotlardan foydalanib apelsinlarning massasini toping.	4 ball	21 kg	1) Berilgan ma'lumotlardan apelsinlar olmalardan necha kg ko'p ekanligini topa olsa, 1 ball ; 2) Olmalarni bir bo'lak, apelsinlarni 3 bo'lak bilan ifodalab, ularning farqi 2 bo'lakka tengligini aniqlay olsa, 1 ball ; 3) Apelsin va olmalarning og'irlik bo'yicha va bo'laklar bo'yicha farqini topa olsa, 2 ball ; 4) Bitta bo'lakka necha kg to'g'ri kelishini to'g'ri topa olsa, 3 ball ; 5) Bitta bo'lakka necha kg to'g'ri kelishini to'g'ri topib, apelsinlarning massasini to'g'ri topa olsa, 4 ball .
	Mulohazaga doir ko'p bosqichli matnli masalalarni yecha oladi	Jamshidda ukasi Sanjarga qaraganda 10000 so'm ko'p pul bor edi. Onasi Jamshidga 3000 so'm va Sanjarga 5000 so'm berganidan so'ng Jamshidning puli Sanjarnikiga qaraganda 2 marta ko'p bo'ldi. Dastlab Sanjarda qancha pul bo'lgan?	4 ball	3000 so'm	1) Jamshid va Sanjarning pulini bir-biriga bog'lay olsa, 1 ball ; 2) Onasi pul berganidan keyin ularning pullari farqini topa olsa, 2 ball ; 3) Onasi pul berganidan keyin, Sanjarning pulini bir bo'lak, Jamshidning pulini 2 bo'lak qilib, bir bo'lak qiymatini to'g'ri topsa, 3 ball ;	

						4) Bir bo‘lak qiymatini to‘g‘ri topib, Sanjarda dastlab qancha pul bo‘lganini to‘g‘ri topsa, 4 ball .
III. Oddiy kasrlar	Sonlarni bo‘lishni kasr ko‘rinishida ifodalash	Natural sonni natural songa bo‘ladi va natijani oddiy va aralash kasr ko‘rinishida ifodalay oladi	1) 6 ta shokolad 8 nafar bolaga teng taqsimlansa, har bir bola shokoladning qancha qismini oladi? Javobni oddiy kasr ko‘rinishida ifodalang. 2) 5 ta nonni 4 nafar bolaga teng bo‘lib bering. Har bir bola nonning qanday qismini oladi? Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang.	2 ball	1) $\frac{6}{8}$; 2) $\frac{5}{4} = 1\frac{1}{4}$	Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball dan jami 2 ball .
	Aralash sonlarni qo‘shish va ayirish	Aralash sonlarni qo‘shish va ayirish amallarini bajara oladi	Hisoblang: 1) $7 - 4\frac{5}{6}$; 2) $8\frac{2}{9} - 3\frac{4}{5}$; 3) $6\frac{7}{10} - 2\frac{1}{4}$.	3 ball	1) $2\frac{1}{6}$; 2) $4\frac{19}{45}$; 3) $4\frac{9}{20}$.	Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball dan jami 3 ball .
Jami				15 ball		

Izoh: Ushbu materiallar o‘qituvchiga BSB topshiriqlarining qaysi bob va mavzudan ekanligi, shuningdek, qaysi ko‘nikmani rivojlantirishga xizmat qilayotganligi haqidagi ma’lumotni beradi.

O‘qituvchi yuqoridagi ma’lumotlar asosida BSB topshiriqlarning turli variantlarini shakllantirishi mumkin.